

## O'ZBEKISTONDA TURIZM SALOHİYATI.

*Abdulbositov Elyor Burxonjon o'g'li*

*[elyorabdulbositov@gmail.com](mailto:elyorabdulbositov@gmail.com)*

*Karimov Laziz Ali o'g'li*

*[Klaziz087@gmail.com](mailto:Klaziz087@gmail.com)*

*Xolmurodov Jasurbek Jamshidovich*

*[xolmurodovjasurbek@gmail.com](mailto:xolmurodovjasurbek@gmail.com)*

*DTPI Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti Turizm yo'nalish talabalari.*

**Annotatsiya:** Bugungi kunda O'zbekistonda turistlar soni yilda yilga o'sib boryapti bu esa yurtimiz iqtisodiyotiga qanchalik foyda keltirayotgani va dunyo turizm bozorida O'zbekiston o'rnini va rolini oshirishdagi say harakatlar haqida ma'lumotlar keltirib o'tganmiz.

**Kalit so'z:** turizm, logistika, mehmonxonalar, transport, aeroportlar, turizm bozori, iqtisodiyot, ziyorat turizmi, restoranlar, ot tuzimi.

O'zbekiston o'zining ko'plab tarixiy-me'moriy yodgorliklari, turfa xil iqlimi va tez sur'atlarda rivojlanishi bilan butun dunyo diqqatini o'ziga tortmoqda. Asrlar mobaynida O'zbekiston Buyuk ipak yo'lining savdo, savdogarlar va sayohatchilar, jo'g'rofiyashunoslar va missionerlar, isti'lochilar va zabt etuvchilarning yo'lida joylashgan edi. Ayni paytda esa, O'zbekiston tashabbuskor, madaniyat, tarix, an'ana va ekzotik mamlakatlarga qiziquvchilar uchun maftunkor sayyohlik yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Shu bilan birga o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, joylashtirish vositalari va infratuzilma ob'yektlarining, ayniqsa turizm mavsumida yetishmasligi, turli transportlarda yo'lovchilarni tashish tizimining yetarli darajada muvofiqlashtirilmaganligi, shuningdek, turistlarni mavjud turizm salohiyati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlashni tashkillashtirish darajasining pastligi, ichki turizmni, mamlakat hududlaridagi madaniy meros obyektlarining va ziyoratning o'ziga xosliklarini targ'ib qilish bo'yicha marketing kompaniyalarining samarasizligi turizmni jadal rivojlantirishga salbiy ta'sir qilmoqda. Turizmni, avvalambor, xususiyl sektorida rivojlantirish uchun qulay shartsharoitlar yaratish, ko'rsatilayotgan xizmatlarning raqobatbardoshligini va sifatini oshirish, milliy turizm mahsulotini dunyo bozorida faol va kompleks ravishda targ'ib qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son Farmoniga muvofiq 2019 - 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlandi. Unda:

- turizm faoliyati sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, turizmni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan xalqaro me'yor va standartlarni implementatsiya qilish;
- turizm infratuzilmasini rivojlantirish hamda maqbul va qulay turizm muhitini yaratish;
- transport logistikasini rivojlantirish, ichki va tashqi yo'nalishlarni kengaytirish, transport xizmatlari sifatini oshirish;
- turizm bozorining turli segmentlariga yo'naltirilgan turizm mahsuloti va xizmatlarini diversifikatsiya qilish;
- respublika ichida turizm xizmatlariga bo'lgan ehtiyojni qondirishga yo'naltirilgan turizm faoliyati subyektlarining faolligini rag'batlantirishni ta'minlovchi ichki turizmni rivojlantirish;

O'zbekiston Respublikasi turizm mahsulotini xalqaro va ichki turizm bozorlarida targ'ib qilish, mamlakatning sayohat va dam olish uchun xavfsiz sifatidagi imidjini mustahkamlash;

- turizm tarmog'i uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi qonuni mazkur sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda huquqiy asos bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Ushbu qonunning 5-moddasida xalqaro va ichki turizm turizmning shakllari ekanligi belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, xalqaro turizm quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- kirish turizmi - O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamaydigan shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududidagi sayohati;
- chiqish turizmi
- O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi shaxslarning boshqa mamlakatga sayohati. Ichki turizm O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududidagi sayohatini o'z ichiga oladi. Turizm tashkil etilayotgan turning o'ziga xosligi, mavzusi, davomiyligi, harakatlanish usullari va turning boshqa xususiyatlaridan kelib chiqqan holda madaniy-tarixiy, ziyorat, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, ishbilarmonlik, ijtimoiy, sport, tibbiy, yoshlar turizmi, agroturizm hamda turizmning boshqa turlariga bo'linishi mumkin. Bugungi kunda xalqaro va ichki turizm salohiyatini oshirishda ot turizmi (otda sayr qilish turlari)ni o'rni beqiyosdir. Xususan, O'zbekiston ot turizmini rivojlantirish uchun ulkan salohiyatga ega bo'lib, uning geografik va tabiiy joylashuvi ham mazkur yo'nalishdagi ishlar ko'lamini yanada kengaytirish uchun har tomonlama qulay hisoblanadi. Ot turizmi (otda sayr qilish) - bu insonga estetik zavq bag'ishlaydigan va organizmga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan, muskullar (mushaklar)ni asab sistemasini mustahkamlaydigan ommaviy tadbir hisoblanadi. Otda yurish eng muhim tadbirlardan biri bo'lib, avvalo insonni ijtimoiy faolligini oshiradi, odamlarni bir-biri bilan do'stona

aloqalarini mustahkamlaydi, shuningdek, yangi do'stlar orttirish hamda sog'lom turmush tarziga amal qilish va inson salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari otda yurish ko'p kasalliklarning oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Masalan: adenoma oshqozon - ichak, yurak, qon bosimi, arteroz kasalliklarini oldini olishda va sog'lomlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Otda yurgan kishi qarilik chog'larida ham qomati va xushbichimligini yaxshi saqlaydi, tetik yuradi, kuch g'ayratini uncha yo'qotmaydi. Bizga ma'lumki, ko'plab buyuk shaxslar, olimu - ulamolarimiz har qanday ob - havo sharoitida ham ancha vaqt otda sayr qilganligi tarixiy asarlarda bayon etilgan. Otda sayr qilish dam olishning eng yaxshi usullaridan biri sanaladi. Hozirgi kunda MDH davlatlarida otda sayr qilish xizmati yaxshi yo'lga qo'yilgan. Otda sayr qilish orqali har xil manzaralarni ko'rish bilan birga, go'zal tabiatdan bahramand bo'lish, har xil insonlar bilan muloqotda bo'lish imkoni tug'iladi. Bundan tashqari har xil millat va elat xalqlarining milliy madaniyatini, xususan, urf-odatlarini, marosimlari va ana'analari bilan yaqindan tanishish imkoniyati paydo bo'ladi. Ot turizmi (otda sayr qilish) tadbirlari guruh - guruh bo'lib, huddi dam olish sihatgohlari kabi 18 - 24 kun ichida dam olishdan iborat bo'ladi. Unda 4 - 5 kun ot minishni o'rganish tadbirlarini tashkil etish nazarda tutiladi va qolgan kunlari reja asosida otda yurib, sayohat qilish orqali faol dam olish tadbirlari o'tkaziladi. Barcha ot turizmi yo'nalishlarida ot minishni endi boshlovchilar uchun maxsus maydonchalarda ot minish sirlarini o'rgatish mashg'ulotlari tashkil etiladi. Ot turizmi (otda sayr qilish) tadbirlari mavsumi asosan may oyining oxiridan - sentyabr oyigacha davom etadi. Ot turizmi (otda sayr qilish turlari)ni tashkil etish va amalga oshirishda yo'riqchi-yo'l boshlovchilar xizmatlaridan foydalanishi shart. Hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri sifatida ot turizmni jadal rivojlantirish, aholi salomatligini mustahkamlash va ularning faol dam olishini tashkil etish maqsadida quydagi masalalarni amalga oshirishni tavsiya etamiz.

Jumladan:

- ot turizmi bo'yicha yo'riqchi-yo'l boshlovchilarni o'qitish va ularning malakasini oshirishni yo'lga qo'yish;
- har yili «Ot turizmi kalendari»ni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish;
- «Ichki turizm oyligi», «Ichki turizm haftaligi» hamda «Ichki turizm kunlari» doirasida otda sayr qilish tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish;
- «O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!» ichki turizmni rivojlantirish dasturi doirasida otda sayr qilish tadbirlarini yo'lga qo'yish;

Mamlakatimizdagi hududlarning o'ziga xosligidan kelib chiqib, shaharlararo va viloyatlararo avtobus yo'nalishlarida (avtobuslarning kuzovlarida (yon, orqa, oldi) mamlakatning ot turizmi salohiyatini targ'ib qiluvchi reklama bannerlarini o'rnatish va inson salomatligiga ijobiy ta'siri haqida ma'lumotlar tarqatish.

**Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi “Turizm to‘g‘risida”gi O‘RQ-549-son qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi “O‘zbekiston respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5611-son Farmoni.
3. “Oliy sport yutuqlarini rivojlantirishning dolzarb muammolari” xalqaro ilmiyamaliy anjuman. Toshkent – 2019.
4. “Fan – sportga” ilmiy-nazariy jurnali 2020-yil 3-son. 48-51-betlar.

